XALQ DEPUTATLARI BERUNIY TUMAN KENGASHINING QARORI

XALÍQ DEPUTATLARÍ BERUNIY RAYONLÍQ KEŃESINIŃ QARARÍ

2023 - yil 29 - may VI-67-57-13-182-K/23 Beruniy tuman hokimligi

**Beruniy tumani hududidagi shahar va shaharcha hamda ovullarning ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq Respublika Aerogeodeziya Markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi tomonidan Beruniy tumanidagi shahar va shaharchalar hamda ovullarning ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o'tkazishni muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasining 2023-yil 25-apreldagi yig‘ilishining 09-27/23-sonli bayonini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq Respublika Aerogeodeziya Markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi tomonidan Beruniy tumanida bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o'tkazishni muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasining 2023-yil 25-apreldagi 09-27/23-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Beruniy tumanidagi shahar va shaharchalar hamda ovullarning ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida ma’lumot 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Beruniy tumanidagi shahar va shaharchalar hamda ovullar ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari xaritasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ushbu qarorni ko‘rib chiqish va tasdiqlash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesidan so‘ralsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha” doimiy komissiyasi raisi K.Atajanov va tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Q.Koshanov zimmalariga yuklansin.

6. Ushbu qaror tuman “Xalq minbari” gazetasida nashr qilinsin va tuman hokimligining rasmiy vebsaytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Kengash raisi** **A.Saparbayev**


Xalq deputatlari Beruniy tuman
Kengashining
2023 yil 29 maydagi
VI-67-57-13-182-K/23-son qaroriga
1-ilova

**Beruniy tumanidagi shahar va shaharchalar hamda ovullarning ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida**

**MA’LUMOT**

| **№** | **Shahar va shaharchalar hamda ovullar nomi** | **Chegara uzunligi (*metr*)** | **Yer maydoni (*gektar*)** |
|---|---|---|---|
| 1 | Abay ovuli | 69089,34 | 7807,08 |
| 2 | Beruniy ovuli | 63090,13 | 15614,90 |
| 3 | Biybozor ovuli | 87144,35 | 16927,99 |
| 4 | Do‘stlik ovuli | 40523,89 | 6018,30 |
| 5 | Mahtumquli ovuli | 37083,71 | 3605,93 |
| 6 | Navoiy ovuli | 45730,98 | 5356,84 |
| 7 | Oltinsoy ovuli | 43348,36 | 7841,56 |
| 8 | Ozod ovuli | 41214,31 | 5070,34 |
| 9 | Qizilqal’a ovuli | 315321,97 | 300528,35 |
| 10 | Sarkop ovuli | 50220,62 | 5670,73 |
| 11 | Shabboz ovuli | 34800,98 | 4264,03 |
| 12 | Shimom ovuli | 50084,06 | 4975,31 |
| 13 | Tinchlik ovuli | 59144,84 | 8234,34 |
| 14 | Beruniy shahar | 31460,03 | 2854,45 |
| 15 | Bo‘lish shaharchasi | 9510,57 | 423,85 |
| | **Jami** | **977768,14** | **395194,0** |

Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining
2023 yil 29 maydagi
VI-67-57-13-182-K/23-son qaroriga
2-ilova


Sh
G'
Shq
J
Қорақалпоғистон Республикаси Беруний туманидаги шаҳар ва шаҳарча ҳамда овулларнинг маъмурий-ҳудудий чегараларини белгилаш ишлари
ХАРИТАСИ
Qizil qal'a
Biybozor
Abay
Oltinsoy
Do'stlik
Beruniy
Tinchlik
Ozod
Shimom
Navoiy
Beruniy shahri
Sarkop
Shabboz